XUDOYBERGAN OXUNDNING SO‘Z SAN’ATIDAN FOYDALANISH MAHORATI

G‘iyosiddinova Gulzira G‘anijon qizi
Andijon viloyati, Izboskan tumani, Poytug‘ shahri, “Ilm nuri” xususiy maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Xudoybergan oxund Nizomiddin o‘g‘li – Ojiz Xorazmda, Muhammad Rahimxon Feruz II davrida yashab ijod etgan. Ojiz hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar Bobojon Tarroh – Xodimning “Xorazm shoir va navozandalari”, Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirai shuaro”, Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush shuaroyi payravi Feruzshohiy” tarzkiralarida mavjud. Ojiz she’rlari jamlangan devon nusxalari O‘zRFA ShIning qo‘lyozmalar fondida 6700, 908/I, 906/IV raqamlari ostida saqlanadi. Tezisda Ojizning so‘z qo‘llash va she’riy san’atlardan foydalanish mahorati qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ojiz, she’riy san’at, tashbih, tajohuli orif, mubolag‘a, tajnis, tazod.

Abstract: Xudoybergan Oxund Nizomiddin o‘g‘li, known by the pen name Ojiz, lived and created his works in Khwarazm during the reign of Muhammad Rahimkhan Feruz II. Information regarding the life and literary heritage of Ojiz can be found in the biographical memoirs (tazkiras) such as "Khwarazm Poets and Musicians" by Bobojon Tarroh – Khodim, "Tazkirai Shuaro" (The Anthology of Poets) by Hasanmurod Laffasiy, and "Majmuat ush-Shuaroyi Payravi Feruzshohiy" (The Collection of Poets Following Feruzshah) by Ahmad Tabibiy. Manuscript copies of Ojiz’s collected poems (diwan) are preserved in the Manuscript Fund of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under inventory numbers 6700, 908/I, and 906/IV. This thesis briefly highlights Ojiz’s word choice and his mastery of utilizing poetic devices.

Keywords: Ojiz, poetic art, tashbih, tajohuli orif, mubolag‘a, tajnis, tazod.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Feruz davri Xorazm adabiy muhiti alohida mavqega ega. Unda yetishib chiqqan juda ko‘plab iste’dod sohiblari qatorida Xudoybergan oxund – Ojiz hayoti va uning qalamiga mansub “Devoni Ojiz” asari bir qator o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Xudoybergan oxund Ojiz ijodida qo‘llangan tasvir vositalari uning yuksak badiiy tafakkuri hamda estetik idealini ochib berishga xizmat qiladi. Shoirning individual uslubini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Badiiy san’atlar haqida so‘z ketganda, Y.Is’hoqov ularni uchta katta turga bo‘lib izohlaydi:

1) lafziy san’atlar;
2) ma’naviy san’atlar;
3) mushtarak (ya’ni har ikkisining xususiyati mavjud bo‘lgan) san’atlar[1].

A.Asallayev va boshqalar hammuallifligida tuzilgan “Badiiy san’atlar” qo‘llanmasida esa “harfiy san’atlar” bobi alohida tuzilgan bo‘lib, unga kitobat, istixroj, muammo, muvashshah, tavzi’, qalb she’riy san’atlari kiritilgan. Ojiz she’rlarining tahlilida ushbu darslik va qo‘llanmalardan unumli foydalanildi.

Tashbih san’ati she’riyatda eng ko‘p uchraydigan badiiy tasvir vositasidir. Bu she’riy san’at “tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq, jozibaliroq

[1] Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент, Zarqalam, 2006. – Б. 12.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi[2]".

Tashbihning qo'llanilishi she'riyatda, jumladan, Ojiz ijodida ham ko'p uchraydi. Masalan, yoy – kamon ("yo" deb ham keltiriladi) tarang tortilgan holda yorning egma qoshlariga o'xshab ketadi. U oshiq qatlini istaydi. Shuning uchun o'q otishga shay bo'lib tarang tortiladi:

Boshimg'a qatlim qasd etib kelgon qoshi "yo"larmudur?!
Murg'i dilim sayd etkoli zulfi sumansolarmudur?![3]

Baytda tashbihga olingan "qoshi yo", "zulfi sumanso" birikmalari o'xashatish unsurlarining ishtirokiga ko'ra tashbihi muyaqqadni hosil etgan.

Shoir ijodida boshdan oxir **tajohuli orif san'ati** asosiga qurilgan she'rlar ham o'rin olgan:

Matla': Har bir tarafdin boshima kelgon jafojo'larmudur,
Yo kelgon anvoi sitam aylarga bir xo'larmudur?!

Tajohuli orif bilan birgalikda tashbih, takrir san'atlari ham qo'llanganini ko'rish mumkin:

3-bayt: Ko'rgoch yuzin hayron ko'zum, til og'zim ichra la'ldur,
Ul iki qosh ostidag'i yo iki jodularmudur?!
4-bayt: Nogah tabassum aylasa, har yon ko'rungon tishmudur,
Yo bir sadaf atrofida terilgon injularmudur?!

Ojiz she'rlarida **tajnisning** go'zal namunalariga duch kelish mumkin:

Gul yuzing ko'rmakka bo'lmish, mahvasho, gulzor zor,
Furqat ichra yig'laram bulbul kabi men zor-zor.

Bunda tajnisni hosil qilgan so'zlar ("gulzor zor", "men zor-zor") dagi takroriy qism "zor/zor" o'ziga xos ohoriy tajnisni yuzaga keltirgan. Birinchi baytda gulzorning yor yuzini ko'rish uchun uchun mushtoq ekanligi ma'nosi anglashilsa, ikkinchi baytda ayriliq ranjida oshiqning achchiq alam va chorasizlik bilan yig'lashi mazmuni aks etadi. Tajnisning bu turi **tajnisi murakkab** deb atalib, u shakldosh so'zlarning biri yaxlit bir so'zdan, ikkinchisi ikki so'zdan iborat bo'lishi orqali vujudga keladi[4].

Ojiz devonining 6700 inventar nusxasining 119[b]-betida berilgan quyidagi g'azal matla'si ham o'ziga xos badiiyati bilan ajralib turadi. Birinchi misradagi "xandon" so'zi yorning (lab – la'lining) sifati bo'lib kelgan. Ikkinchi misrada esa, bu so'z "kulgusi" so'zining sifati bo'lib kelgan. Bayt mazmuni: "lablari kulib turguvchi yorning kulgusi dildagi g'amni ketkizadi,

Zoyil aylar dil g'amin ul la'li xandon kulgusi,
Ziynat afzun etkusi la'lig'a xandon kulgusi.

Tavzi' san'ati deb baytda biror tovushning odatdagidan ko'proq takroriga aytiladi[5]. Tilshunoslikda esa bu alliteratsiya nomi bilan yuritiladi. Quyidagi baytda shoir ijodidan tavzi' san'atiga bir namuna ko'rish mumkin:

Bu kun yonimg'a keldi bir paroro',
Sumanso-u **suman**bar ham **suman**bo'[6].

[2] Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 14.
[3] O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 908/I. – B. 28[a].
[4] Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 281.
[5] Asallayev A. Rahmonov V. Musurmonqulov F. Badiiy san'atlar. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – B. 22.
[6] O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 6700. – B. 100[b].

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Bundan tashqari, ushbu baytda ta'did san'ati ham qo'llanganini takidlash joiz. Ta'did – so'zlarning sanash ohangida keltirilishidir. "Suman" so'zi takroriy keltirilib, boshqa so'zlar yasalishiga asos bo'lishi ishtiqoq san'atini yuzaga keltirgan.

Quyidagi baytda ham ta'did san'ati qo'llangan. Bayt 6700 qo'lyozma nusxasining 106[a]-betida bitilgan g'azal matla'sidir:

Otlanib maydona kirmish kaj kuloh boshi uza,

Ishva-u nozi, adosi g'amza-u qoshi uza.

6700 devon nusxasining 61[a]-betida berilgan 7 baytli g'azal matla'si **tazod** va **mubolag'a** san'atlarining o'ziga xos go'zal badiiyati bilan ziynatlangan. "Ey pariro'yim, ishqingning dengiziga g'arq bo'ldim. Omon qolish uchun boshimni chiqarsam, ishqing otashi kuydirib yuborguday.":

Bahri ishqing ichra bo'ldim, ey pariro'yim, g'ariq,

Bosh chiqorsam bahridin bo'lg'usidur o'ti hariq.

O'zR FA ShI Asosiy fondi, inv. № 6700 qo'lyozma nusxaning 48[b]-49[a]-sahifalariga kitobat qilingan quyidagi g'azal matla'sida esa "qish" va "bahor" so'zlari zidlantirib qo'llangan va **tazod san'ati**ni hosil etgan:

Solmadi man sori nazar umrim o'tub nigorimiz,

Qishg'a mubaddal o'ldimu, oh, bizing bahorimiz?!

Shoirning mahorati so'z o'yinlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi**. Kitobat san'ati**ning baytda qanday aks etganini tushunish uchun buni arab harflari vositasida ko'rish zarur. 6700 qo'lyozma nusxasining 90[b]-betidagi g'azal matla'ida "Lab" iga "Bismilloh" so'zidagi "b" harfi yakun bo'ldi deyiladi. Chunki "Lab" (لب) so'zining intihosi, ya'ni oxirgi harfi "Bismilloh" so'zining bosh harfi "b" bilan tugaydi.

Labig'a intiho chun bo'ldi bismilloh "bo" sidin,

Shifobaxsh o'lsa, tong yo'q ishq ahli dard davosidin.

"Bismilloh" kalomining shafoatidan qanchadan-qancha mushkul ishlar yechim topadi. Ajab emaski, yor labidan (so'zidan) ishq ahlining dardiga ham davo topilsa. Axir "Lab" so'zining oxirgi harfi ham shu muborak kalimaning bosh harfidan olingan-ku!

Xulosa qilib aytganda, Xudoybergan oxund – Ojiz she'riyatining yetakchi mavzusi ishqdir. Shoir ijodida ilohiy muhabbatning tarannumi aks etttirilgan. Ojiz o'z she'rlarida tashbeh, tazod, istiora, takrir, mutakarrir, kitobat, talmeh, ta'did, ishtiqoq, husni ta'lil, nido, tajnis san'atlaridan mahorat bilan foydalangan. Shoir ijodini mukammal tadqiq etish, nashr qilish va ilmiy-ommabop nusxasini muomalaga kiritish dolzarb masalalardandir. Zero, yosh avlodni ma'naviyatimizning boy xazinasidan xabardor qilish, ta'lim-tarbiya ishlarida ushbu so'z javohirlaridan foydalanish kelajak avlodning yuksak fikrlaydigan shaxs bo'lib voyaga yetishida, yoshlarning ilmiy va badiiy-estetik salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 6700.
2. O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 908/I.
3. Исмоилова Г. (1995). Феруз даври Хоразм адабий муҳити. (141). Филол. фан. номз. дисс. Тошкент.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент, Zarqalam, 2006.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

6. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
7. Asallayev A. Rahmonov V. Musurmonqulov F. Badiiy san'atlar. – Toshkent: Tafakkur, 2015.
8. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. (XVII-XIX (I yarmi) asrlar). O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – Toshkent: 2006.
9. Адабий тур ва жанрлар. 3 жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992.
10. ziyouz.com

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.